Salayeva Guli Mansurbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi)

AHOLI SALOMATLIGINI YAXSHILASH UCHUN YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aholi salomatligini yaxshilashda yashil investitsiyalarni jalb etishning ilmiy asoslari, amaliy yo'nalishlari va O'zbekiston sharoitida ularni tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida yashil investitsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlovchi vosita, balki sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirishga xizmat qiladigan strategik sarmoya ekanligi asoslab berildi. Xalqaro tajribalar, milliy-huquqiy asoslar va mavjud muammolarni chuqur o'rgangan holda, yashil infratuzilmani rivojlantirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va ekologik salomatlik konsepsiyasini sog'liqni saqlash siyosatiga integratsiyalash bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ekologik xavfsiz muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *yashil investitsiyalar, aholi salomatligi, ekologik xavfsizlik, sog'liqni saqlash infratuzilmasi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, moliyaviy mexanizmlar.*

ПРИВЛЕЧЕНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. *В этой статье проанализированы научные основы, практические направления и возможности привлечения зелёных инвестиций для улучшения здоровья населения в условиях Узбекистана. Исследование обосновывает, что зелёные инвестиции выступают не только инструментом обеспечения экологической устойчивости, но и стратегическим вложением, способствующим укреплению системы здравоохранения. На основе глубокого изучения международного опыта, национальной правовой базы и существующих проблем разработаны научные предложения по развитию зелёной инфраструктуры, совершенствованию механизмов финансирования и интеграции концепции экологического здоровья в политику здравоохранения. Результаты исследования также продемонстрировали решающее значение экологически безопасной среды в формировании здорового образа жизни.*

Ключевые слова: *зелёные инвестиции, здоровье населения, экологическая безопасность, инфраструктура здравоохранения, устойчивое развитие, зелёная экономика, финансовые механизмы.*

ATTRACTING GREEN INVESTMENTS TO IMPROVE POPULATION HEALTH

Annotation. *In this article analyzes the scientific foundations, practical directions, and opportunities for implementing green investments to improve population health in the context of Uzbekistan. The study substantiates that green investments serve not only as a tool for ensuring ecological sustainability but also as a strategic investment contributing to strengthening the healthcare system. Based on a thorough examination of international experiences, national legal frameworks, and existing challenges, scientific proposals have been developed regarding the development of green infrastructure, improvement of financing mechanisms, and integration of the ecological health concept into public health policy. The research findings also demonstrate the decisive importance of an ecologically safe environment in shaping a healthy lifestyle.*

Keywords: *green investments, green finance, population health, public health, ecological safety, environmental health, healthcare infrastructure, sustainable development, green economy, financial mechanisms, sustainable finance.*

Kirish. Bugungi globallashuv va urbanizatsiya sharoitida inson salomatligiga tahdid solayotgan muammolar tobora murakkablashib bormoqda. Aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlash, hayot sifati va umr davomiyligini oshirish har bir davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Biroq bu maqsadga erishishda faqat tibbiyot xizmatlari ko'lamini kengaytirish yoki farmatsevtika sohasini rivojlantirish yetarli emas. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi ko'p jihatdan ekologik omillar, atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish madaniyatiga ham bog'liq.

Yashil investitsiyalar tushunchasi salomatlik siyosatida alohida e'tiborni talab qilmoqda. Yashil investitsiyalar bu ekologik barqarorlikni ta'minlovchi, tabiiy muhitga salbiy ta'sirni kamaytiruvchi va inson salomatligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadigan sarmoyalardir. Ular qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, havo va suv sifatini yaxshilash, chiqindilarni boshqarish va yashil infratuzilmani kengaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Aholining ekologik xavfsiz muhitda yashashi esa surunkali va yuqumli ka-

salliklarning kamayishi, ruhiy salomatlikning barqarorlashuvi hamda umumiy hayot sifati ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik barqarorlik va sog‘liqni saqlash sohasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Biroq yashil investitsiyalarni bevosita salomatlik bilan bog‘liq yo‘nalishlarga yo‘naltirish, bu borada moliyaviy va institutsional mexanizmlarni shakllantirish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Xususan, global iqlim o‘zgarishlari, havoning ifloslanishi, ichimlik suvi ta’minotidagi muammolar, yirik sanoat obyektlarining atrof-muhitga salbiy ta’siri aholi salomatligiga bevosita xavf tug‘dirmoqda. Ushbu xavflarning oldini olish va sog‘liqni saqlash tizimini ekologik jihatdan integratsiyalashgan holga keltirish uchun yashil investitsiyalarning ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu tezis ishining asosiy maqsadi–aholi salomatligini yaxshilashda yashil investitsiyalarning tutgan o‘rni va roli, ularni samarali jalb qilish mexanizmlari hamda O‘zbekiston sharoitida ularning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari yashil investitsiyalar va salomatlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish, ekologik sog‘lom muhit yaratish orqali sog‘liqni saqlashni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va ularning samaradorligini aniqlash, O‘zbekiston sharoitida zamonaviy moliyaviy va institutsional mexanizmlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shu tariqa, yashil investitsiyalarni sog‘liqni saqlash siyosati bilan uyg‘unlashtirish orqali barqaror rivojlanish, sog‘lom avlod va ekologik xavfsiz jamiyatni shakllantirishga erishish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yashil iqtisodiyot va yashil investitsiyalar bugungi kunda sog‘lom turmush tarzini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. BMT, UNEP va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar yashil investitsiyalarni ekologik barqarorlik va aholi salomatligi o‘rtasidagi asosiy ko‘prik deb hisoblaydi. Xususan, “Towards a Green Economy” (UNEP, 2011) hisobotida yashil sarmoyalar atrof-muhitni sog‘lomlashtirish orqali sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilishi qayd etilgan.[1]

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2016) tadqiqotlariga ko‘ra, har yili millionlab insonlar ekologik ifloslanish sababli sog‘lig‘idan jabr ko‘rmoqda. A.McMichael va H.Frumkin kabi olimlar yashil makonlar, toza havo va suv manbalariga qilingan investitsiyalar yurak-qon tomir va nafas yo‘llari kasalliklarini kamaytirishiga urg‘u berganlar.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha 2021-yilda qabul qilingan strategiya va boshqa normativ hujjatlar ekologik xavfsiz muhit yaratish orqali sog‘liqni saqlash tizimini qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilgan. M.Qayumov, Z.Karimova kabi mahalliy tadqiqotchilar yashil investitsiyalar va sog‘liqni saqlash o‘rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy bog‘liqlikni tahlil qilganlar.[2]

Xalqaro donorlar–Jahon banki, UNDP, GEF va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ham sog‘liqni saqlash va ekologiyani uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan. Bu tajribalar yashil investitsiyalarni salomatlikni mustahkamlash vositasi sifatida ko‘rib chiqishga asos yaratadi.

Mavjud adabiyotlar yashil investitsiyalar orqali sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash imkoniyatlari yetarlicha asoslanganini ko‘rsatadi. Biroq bu yo‘nalishda bevosita tahlillarga asoslangan kompleks tadqiqotlar hanuz kam bo‘lib, mavzuning dolzarbligi saqlanib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Yashil investitsiyalarni aholi salomatligini yaxshilash vositasi sifatida o‘rganish natijasida bir qator ilmiy-amaliy xulosalar shakllandi. Tahlillar ko‘rsatdiki, ekologik investitsiyalar, avvalo, yashash muhitini sog‘lomlashtirish orqali kasalliklar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Atrof-muhit sifati va sog‘liq o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ilmiy jihatdan WHO, UNEP va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qayd etilgan. Ayniqsa, havo va suvning ifloslanishi, chiqindilarning to‘planishi, yashil hududlarning yetishmasligi kabi omillar aholining yurak-qon tomir, nafas yo‘llari va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, ko‘plab xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash tizimida profilaktik yo‘nalishda amalga oshirilgan yashil investitsiyalar uzoq muddatda sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishga olib keladi. Ekologik tozalikka qaratilgan sarmoyalar orqali kasalliklarning oldi olinadi, bu esa byudjet xarajatlarining optimallashtirilishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, shaharlarda toza havo, ekologik transport, energiya tejamkor binolar, yashil parklar va zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash tizimlari aholining jismoniy va ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston sharoitida esa hozirgi paytda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar belgilangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish sog‘liqni saqlash tizimi bilan yetarli darajada uyg‘unlashtirilmagan. Ko‘plab ekologik loyiha va dasturlar mavjud bo‘lsa-da, ularning bevosita sog‘liqni saqlashga ta’siri, ularning

[1] https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy
[2] https://lex.uz/ru/docs/5652084

natijalari va salomatlik ko‘rsatkichlariga ta’siri tizimli baholanmagan. Sog‘liqni saqlash sohasida “yashil infratuzilma” tushunchasi hali keng tatbiq etilmagan bo‘lib, ekologik toza shifoxonalar, sog‘lom ekologik makonlarda joylashgan reabilitatsiya markazlari kabi tashabbuslar endigina shakllanmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy va huquqiy mexanizmlar, xususan, yashil obligatsiyalar, soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi yashil tibbiyot loyihalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Investitsion muhitda yashil sog‘liqni saqlash loyihalariga alohida e’tibor berilmasligi, ularni moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi bu sohaning taraqqiyotini sekinlashtirayotgan muhim omillardan biridir.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va sog‘liqni saqlash integratsiyasi bo‘yicha tahliliy jadval

Yo‘nalish	Hozirgi holat	Mavjud muammolar	Taklif etilayot gan chora-adbirlar	Kutilayotgan natijalar
Yashil infratuzilma	Ekologik loyiha va dasturlar mavjud, ammo sog‘liqni saqlash bilan to‘liq integratsiyalanma-gan.	Yashil shifoxonalar va ekologik reabilitatsiya markazlari kam.	Energiya tejamkor, ekologik toza shifoxonalar qurish va modernizasiya qilish.	Tibbiy xizmat sifati oshadi, ekologik barqarorlik ta’minlanadi.
Ekologik loyihalarning sog‘liqka ta’siri	Loyihalar mavjud, ammo salomatlik ko‘rsatkichlariga ta’siri tizimli baholanmagan.	Monitoring va baholash mexanizmlari yetarli emas.	Sog‘liq indicatorlari asosida baholash tizimini joriy etish.	Aholi salomatligi va ekologik omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi.
Moliyaviy mexanizmlar	Yashil obligatsiyalar va soliq imtiyozlari cheklangan darajada qo‘llanilmoqda.	Maxsus moliyalashtirish instrumentlari yetarlicha ishlab chiqilmagan.	Yashil obligatsiyalar chiqarish, soliq imtiyozlari va grant dasturlarini kengaytirish.	Investitsiyalar hajmi oshadi va barqaror moliyalashtirish shakllanadi.
Davlat-xususiy sheriklik	Alohida loyihalar mavjud, ammo sog‘liqni saqlashda keng qo‘llanilmayapti.	Xususiy sektor uchun rag‘batlar yetarli emas.	DXSH asosida yashil tibbiyot loyihalarini ishlab chiqish.	Innovatsion tibbiy xizmatlar va infratuzilma rivojlanadi.
Investitsion muhit	Yashil sog‘liqni saqlash loyihalariga alohada e’tibor berilmayapti.	Moliyalashtirish manbalari cheklangan.	Strategik dastur va alohida investitsiya platformasini yaratish.	Kompleks rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Yakuniy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil investitsiyalarni sog‘liqni saqlash bilan integratsiyalash orqali aholi salomatligini kompleks ravishda mustahkamlash mumkin. Bu nafaqat tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishiga, balki ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikka erishishga ham xizmat qiladi. Shu bois O‘zbekiston sharoitida yashil sarmoyalarni sog‘liqni saqlash infratuzilmasiga jalb qilish bo‘yicha izchil va maqsadli siyosat olib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil investitsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlashda, balki aholi salomatligini mustahkamlashda ham muhim strategik vosita hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, ayniqsa, havo va suv sifatining yomonlashuvi, chiqindilarning to‘planishi va yashil hududlarning yetishmasligi – yurak-qon tomir, nafas yo‘llari va ruhiy salomatlik kabi asosiy sog‘liq ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro tashkilotlar – Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Jahon banki tadqiqotlari asosida yashil investitsiyalar orqali ushbu xavflarni kamaytirish, salomatlikni mustahkamlash va sog‘liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish imkoniyati mavjudligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Xorijiy davlatlar tajribasi, jumladan Germaniya, Janubiy Koreya va Skandinaviya mamlakatlari misolida ko‘rilganidek, ekologik jihatdan qulay infratuzilmalar, yashil transport, energiya samarador binolar va toza texnologiyalar sog‘liqni saqlash tizimining profilaktik yo‘nalishini kuchaytiradi. O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida ayrim tashabbuslar boshlangan bo‘lsa-da, ularning sog‘liqni saqlash tizimi bilan integratsiyalashuvi yetarli emas. Ekologik xavfsiz tibbiyot muassasalari, yashil texnologiyalar asosida reabilitatsiya markazlari, va sog‘lom yashash makonlari hali keng rivoj topmagan.

Shuningdek, yashil sog‘liqni saqlash loyihalarini moliyalashtirishda zarur bo‘lgan moliyaviy va institutsional mexanizmlar, xususan, yashil obligatsiyalar, soliq imtiyozlari, davlat–xususiy sheriklik asosidagi tashabbuslar yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa yashil sarmoyalarni salomatlik sohasiga jalb qilish imkoniyatlarini cheklab, sohaning kompleks rivojlanishiga to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, yashil investitsiyalarni sog‘liqni saqlash siyosati bilan uyg‘unlashtirish orqali ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va jamoat salomatligini ta’minlash mumkinligi aniqlangan. Bu

esa mamlakatda sog‘lom avlodni shakllantirish va barqaror rivojlanishga erishishning muhim kafolati sifatida baholanadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, sog‘liqni saqlash sohasida yashil infratuzilmani kengaytirish zarur. Bunga ekologik toza energiya manbalaridan foydalanuvchi shifoxonalar, tabiiy muhitga zarar yetkazmaydigan tibbiy obyektlar, shuningdek, yashil hududlarda joylashgan profilaktika va reabilitatsiya markazlari barpo etilishi kiradi.

Ikkinchidan, yashil sog‘liqni saqlash loyihalarini moliyalashtirishni rag‘batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish talab etiladi. Xususan, yashil obligatsiyalarni muomalaga chiqarish, sog‘liqni saqlash sohasidagi yashil tashabbuslar uchun soliq imtiyozlarini yaratish va xususiy sektorni keng jalb etish lozim.

Uchinchidan, sog‘liqni saqlash va atrof-muhit sohalari o‘rtasida institutsional hamkorlikni kuchaytirish, ushbu yo‘nalishlar integratsiyasini ta’minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish tavsiya etiladi. Sog‘liqni saqlash siyosatiga ekologik xavfsizlik va yashash muhiti sifatiga oid mezonlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, yashil investitsiyalar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish zarur. Bu orqali ularning sog‘liq ko‘rsatkichlariga ta’siri tizimli tahlil qilinib, strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy yondashuv kuchaytiriladi.

Beshinchidan, aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish, yashil turmush tarzini ommalashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish orqali yashil sog‘liqni saqlash siyosatining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi, 2011.

(2). World Health Organization (WHO). Preventing disease through healthy environments: A global assessment of the burden of disease from environmental risks. Geneva, 2016.

(3). McMichael A.J., Butler C.D. “Environmentally sustainable health systems: the role of green investment.” Lancet, 2015.

(4). Frumkin H. Environmental Health: From Global to Local. Jossey-Bass, San Francisco, 2016.

(5). World Bank. Investing in Climate, Investing in Health. Washington, D.C., 2020.

(6). OECD. Green Growth and Public Health: Policy synergies. Paris, 2019.

(7). Global Environment Facility (GEF). Annual Report on Green Investments. Washington, D.C., 2020.

(8). Asian Development Bank (ADB). Green Cities: Sustainable Urban Development in Asia. Manila, 2018.

(9). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”-gi qarori, 2021.

(10). Qayumov M. “Yashil investitsiyalar va barqaror rivojlanish: O‘zbekiston tajribasi.” Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, 2022, 3-son.